

Rashidova Mahliyo Baxtiyor qizi

*Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik
yo`nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Fransiya davlat xizmatining rivojlanishining tarixiy tendensiyasi, uning huquqiy asosi, davlat xizmatining bugungi holati, huquqiy jihatdan qay tarzda mustahkamlanganligi, undagi muvaffaqiyatli jihatlar va ushbu yutuqlarni mamlakatimiz davlat xizmati sohasi rivoji uchun qo'llash mumkin bo'lgan tomonlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Davlat xizmati, davlat xizmatchisi, „mansabdor shaxs“, huquqiy normalar, deklaratsiya, avtoritar rejim, monarxiya, kadr.

KIRISH:

Davlat xizmati- ma'muriy huquqning markaziy institutlaridan biri bo'lib, davlat organlari vakolatlarining bajarilishini ta'minlash bo'yicha kasbiy faoliyat. Davlat xizmati- bu davlat tashkilotlari (organ, muassasa) xizmatchilarining davlat funksiyalari va vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan hamda haq to'lanadigan mehnat faoliyati. Davlat xizmatining mazmuni shaxs egallab turgan mansab (lavozim) orqali belgilanadi. Davlat xizmati huquqiy institutlari (huquqiy normalar majmuasi) kompleks hisoblanib, u ma'muriy, mehnat, moliya, fuqarolik va boshqa huquq sohalarining normalarini o'z ichiga oladi.

Davlat xizmati siyosiy ma'noda:

- Davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan faoliyat;
- Davlatning maqsad va vazifalariga barcha ishlab chiqarilgan siyosiy kuchlar orqali erishish;
- Jamiyatdagi muvozanatning asosiy ko'rinishidir.

Huquqiy ma'noda esa:

- Davlat- xizmat munosabatlarini huquqiy o'rnatish;
- Mansab majburiyatlari, xizmatlarning vakolatlari, davlat organlarining kompetensiyasi bajarilishini ta'minlashni anglatadi.

Muhokama va natijalar:

Fransiyada buyuk fransuz inqilobidan beri davlat xizmatchilari uchun keng kafolatlarga ega kuchli davlat xizmati qurilmoqda. Davlat xizmatchisi maqomida tubdan o'zgarish 1789- yildagi Buyuk fransuz inqilobi natijasi ro'y berdi. Monarxiya rejimining qulashi va respublikaning tashkil etilishi davlat xizmatchisiga endi qirolning emas, balki davlat xizmatchisi sifatida qaralishini anglatardi. Garchi qirol yoki imperator tomonidan hukmronlik tez orada qaytarilgan va Fransiyada yana bir asrga yaqin monarxiya davom etgan bo'lsa ham, davlat xizmatchisi maqomi endi avvalgidek emasdi. Fransuz davlat xizmati- Fransiya hukumati uchun ishlaydigan davlat xizmatchilari majmuidir. Davlat xizmati ba`zan noto`g`ri ma`muriyat deb ham ataladi, lekin to`g`ri aytganda, ma`muriyat

davlat boshqaruvi organlari va davlat boshqaruvi muassasalarining birlashmasi bo'lib, ularning xodimlari emas. Fransiya davlat xizmatidagi ish o'rinlarining aksariyati Yevropa Ittifoqi fuqarolari uchun ochiqdir. Davlat xizmatchilarining yarmiga yaqini Fransiya xalq ta'limi tizimida ishlaydi. Fransuz davlat xizmati quyidagilarga bo'linadi:

- Davlat fuqarolik xizmati;
- Sud hokimiyati;
- Davlat shifoxonalari fuqarolik xizmati;
- Mahalliy hokimiyat organlari davlat xizmati.

Texnik jihatdan Davlat fuqarolik xizmati harbiy maqomga ega bo'lgan xodimlarga ham tegishli bo'lishi mumkin. 1945-1949- yillardagi islohotlardan so'ng uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lgan „davlat hamma narsani qiladi“ yondashuvi asta-sekin respublikani markazlashtirish jarayonini boshdan kechirayotgan mo'tadil qarashlar, fuqarolarga nisbatan shaffofroq bo'lish istagi va tartibga solishga yondashuv bilan almashtirilmogda . Bugungi davlat xizmati yuqori malaka va halollikni ta'minlangan holda respublika meritokratiyasi qo'llab-quvvatlovchi, ishga qabul qilishning tanlov imtihonlari tizimi orqali professional tarzda tashkil etiladi. Fransiyada davlat xizmati murakkab institutdir, chunki uning tarixiy rivojlanishi turli qarama- qarshi yo'nalishlarni o'zida aks ettiriladi, xolislik, tenglik, moslashuvchanlik va davomiylik tamoyillarini ilgari suradi. Fransiya qonunchiligi mamlakatda davlat fuqarolik xizmatini tashkil etishni to'liq va aniq tartibga solidi. Uning asosiy tamoyillari Fransiya Rspublikasining 1958-yilgi Konstitutsiyasida, shuningdek, 1789-yilgi „Inson va fuqaroning huquqlari to'g'risida“gi Deklaratsiyasida va 1946-yilgi Konstitutsiyaning Preambulasida, 1946-yilgi „Davlat xizmati to'g'risidagi“gi qonunda mustahkamlangan bo'lib, ular Fransiyaning zamonaviy konstitutsiyaviy huquqiga kiritilgan. Davlat xizmatini yanada batafsil tartibga solish „Davlat xizmati to'g'risida“gi umumiy nizom bilan amalga oshiriladi, u to'rtta qonunni o'z ichiga oladi, uning bo'limlari:

- 1983-yil 13-iyuldagi „Mansabdor shaxslarning huquq va majburiyatlari to'g'risida“gi Qonun;

- 1984-yil 11-yanvardagi „Davlat xizmati to'g'risida“gi nizom qoidalarini o'z ichiga olgan Qonun;

- 1984-yil 26-yanvardagi „Mahalliy davlat xizmati to'g'risida“gi nizom qoidalarini o'z ichiga olgan Qonun;

- 1986-yil 6-yanvardagi „Davlat tibbiyot xizmati to'g'risida“gi nizom qoidalarini o'z ichiga olgan Qonun.

1789-yildagi „Inson va fuqaroning huquqlari to'g'risida“gi Deklaratsiyada fuqarolarning davlat lavozimlariga erkin kirish huquqini e'tirof etdi. Inqilob davlat xizmatida imtiyozli lavozimlarni bekor qildi va davlat lavozimlariga teng kirish tamoyilini o'rnatdi. Napoleon avtoritar rejim uchun oqilona va izchil boshqaruvni qurdi, bunda Qadimgi rejim ostida ishlab chiqilgan institutlardan qo'ldan kelganicha foydalandi. Endi u o'zining professional atributlarini chuqurlashtirdi (xodimlarni rivojlantirish, ish haqi to'g'risidagi nizomlar, lavozimga ko'tarilish va pensiya olish huquqi va tanlovga kirish tartib-qoidalarini joriy etish orqali xodimlarni tanlovdan o'tkazish). Inqilob davlat xizmatini yanada o'rta sinfni teng huquqli institutga aylantirgan bo'lsa-da, davlat rahbari

yoki vazirlar ixtiyorida qolgan tayinlashlarda shaxsiy munosabatlar va ijtimoiy mezonlar ustunlik qilishda davom etdi.

Bugun Fransiyada amalda bo'lgan davlat xizmati to'g'risidagi qonunchilik mamlakat nemis bosqinidan ozod qilinganidan so'ng darhol boshlangan islohotlar natijasidir. Garchi „mansabdor shaxs“ tushunchasi bugungi kunda davlat boshqaruvi organlari xizmatidagi barcha shaxslar uchun qo'llanilsa-da, qat'iy yuridik ma'noda u ancha torroqdir: mohiyatiga ko'ra, u faqat davlat (xalq) xizmati xodimlariga taalluqlidir. „Mansabdor shaxs“ va „davlat xizmatchisi“ tushunchalari bir-biridan ajratilmagan.

1958-yilgi Fransiya Konstitutsiyasining 6-moddasida davlat xizmati va unga kirishning umumiy tartibi belgilangan. Unga ko'ra: „Qonun umumiy irodaning ifodasidir. Barcha fuqarolar uni amalga oshirishda shaxsan yoki o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bu hamma uchun xoh u himoya qilish, xoh jazolash bo'lsin bir xil bo'lishi kerak. Barcha fuqarolar uning oldida teng bo'lgan holda, o'z imkoniyatlariga ko'ra barcha yuqori lavozimlarga, davlat lavozimlarini egallash va ishga kirishda ularning fazilatlar va iste'dodlaridan boshqa farqlarni hisobga olmaganda teng huquqli bo'ladilar“ - deb belgilangan.

Bundan tashqari fransuz konstitutsiyasining Hukumatga bag'ishlangan III bobi 20-moddasiga ko'ra hukumat davlat siyosatini belgilaydi va amalga oshirishi, uning ixtiyorida davlat xizmati va qurolli kuchlar mavjudligi. Shuningdek, u konstitutsiyaning 49 va 50-moddalarda ko'rsatilgan shartlar va tartiblarga muvofiq Parlamentga hisobot berishi belgilangan. Shu bilan birgalikda Fransiya konstitutsiyasining Parlament va hukumat o'rtadagi munosabatlarga bag'ishlangan III bobi 34-moddasida davlat xizmatchilari va Qurolli Kuchlar a'zolariga beriladigan asosiy kafolatlar mavjudligi ta'kidlangan.

1946-yil 5-oktyabrda qabul qilingan „Fuqarolik xizmati to'g'risida“gi qonuni davlat xizmatini birlashtirishga harakat qilib, unga umumiy xususiyatni berdi va ushbu keng qamrovli qonun Ta'sis majlisi tomonidan qabul qilindi. O'tgan yarim asrdan ko'proq vaqt davomida ushbu qonunga, ko'plab tuzatishlar kiritildi. Bular: 1959-yil 4-fevraldagi farmon, 1983-yil 13-iyul, 1984-yil 11 va 26-yanvar, 1986-yil 9-yanvardagi ko'plab qoidalar qayta ko'rib chiqilgan. Shunga qaramay, tarkibiy muvozanat nizomning birinchi tahririda belgilangan, bu hozirgi kungacha ozmi-ko'pmi saqlanib qolgan. 1959-yilgi „Davlat xizmatchilarining umumiy nizomi to'g'risida“gi Farmon 1946-yilgi qonunga oz sonli o'zgartirishlar kiritdi, biroq ularning barchasi mansabdor shaxslarning hokimiyatga ierarxik bo'ysunishini kuchaytirishga qaratilgan edi.

1946-yilda qabul qilingan „Mansabdor shaxsning umumiy maqomi to'g'risida“gi qonun davlat xizmati tuzilmasi va mansabdor shaxslarning mehnatiga haq to'lash tizimini tartibga solidi. 1946-yilgi qonun davlat xizmati tizimiga „kadr“ tushunchasini kiritdi, bu bir xil darajadagi davlat xizmatchilari egallagan barcha lavozimlarning birlashuvini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, bu konsepsiya o'xshash lavozimlarni egallagan bir guruh odamlarning pozitsiyasini qamrab oladi. Shunday qilib, barcha bo'limlar direktorlarini o'z ichiga olgan direktorlar, barcha inspektorlarni birlashtirgan nazorat kadrlari va boshqalar mavjud. Bundan tashqari, „mansabdor shaxslar sinfi“ tushunchasi ham mavjud. Hammasi bo'lib kamayib borayotgan ierarxik tartibda to'rtta sinf mavjud:

A sinf boshqaruv qarorlari va ko`rsatmalarini ishlab chiqish funksiyalarini bajaradi. Uning ulushi ma`muriy davlat boshqaruvi mansabdor shaxslari umumiy sonining 20 foizini tashkil etadi;

B klassi ushbu vazifalarning ijrosini amalga oshirish vazifasini bajaradi. U mansabdor shaxslarning taxminan 40 % ni o`z ichiga oladi;

C toifasi ixtisoslashtirilgan ijro bilan shug`ullanadi va mansabdor shaxslarning 32 foizini qamrab oladi;

D sinfga oddiy ijrochilar bo`lgan texnik xodimlar kiradi.

Shuni ta`kidlash kerakki, 1946-yilgi qonun ham, 1959-yilgi farmon ham butun Fransiya davlat xizmatini qamrab olmaydi. Ular tomonidan belgilangan mansabdor shaxsning maqomi davlat xizmatchilarining bir nechta toifalariga taalluqli emas: sudyalari, harbiy xizmatchilar, ishlab chiqarish va tijorat xarakteridagi davlat xizmatlari xodimlari va politsiya. Shunday qilib, Fransiyada amaldorning asosiy maqomi bilan bir qatorda yuqorida sanab o`tilgan toifadagi mansabdor shaxslarning shaxsiy maqomlari ham mavjud.

XULOSA:

Xulosa o`rnida shuni keltirishimiz mumkinki, bugungi Fransiya davlat fuqarolik xizmatlari dunyoning eng rivojlangan, ko`pgina boshqa davlatlar o`z rivojida foydalanadigan tizim hisoblanadi. Fransiyada mansabdor shaxslarning shaxsiy ishlarida uning siyosiy, falsafiy yoki diniy qarashlari hech qanday eslatma bo`lishi mumkin emas. Fransuz huquqiy doktrinasi amaldorning davlatga umumiy sodiqlik tamoyilidan kelib chiqadi, lekin bu sodiqlik passivdir, u faol ifodani talab qilmaydi. Ya`ni hukmron partiyaga qo`shilish yoki hukumat kursini qo`llab- quvvatlash. Fransiyada sadoqat hukumatga emas, balki millat va Konstitutsiyaga sodiqlik sifatida tushuniladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. uz.m.wikipedia.org.
2. <https://www.britannica.com/topic/public-administration/France>.
3. <https://www.jstor.org/stable/2519136>.
4. [https://www.conseil-constitutonnel.fr/sites/default/files/as/root/bankmm/anglais/constiution anglais oct2009.pdf](https://www.conseil-constitutonnel.fr/sites/default/files/as/root/bankmm/anglais/constiution%20anglais%20oct2009.pdf)
5. The development and current features of the French civil service system. Philippe Bezos, Gilles Jeannot.185-215,2011. Hal-01257027
6. Bodiguel, J.-L.(1990). „Plitical and Administrative Traditions and the French Senior Civil Service .`` International Journal of Administration.